



## **UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISHNING MUHIM VAZIFALARI**

**Axmedova Ra'noxon Ismoilovna**

*Bag'dod tumani 28-maktab psixologi*

**Axmedova Holisxon Saminovna**

*Bag'dod tumani 40-maktab psixologi*

**Anontatsiya** *Ushbu maqolada psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida bayon etilgan.*

**Kalit so`zlar:** *qobiliyat, ma`rifat, rivojlanish, kasb-hunar, profilaktika, korreksiya, psixologik xizmat*

### **KIRISH**

Quyidagilar psixologik xizmatning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish ishlarini sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirish;

O'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida kasb-hunarni to'g'ri tanlashlariga ko'maklashish;

Turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy rivojlanishida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;

O'quvchilar ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

Pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo



munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

Iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

Axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog'ining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

Pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta'minlash.

Psixologik xizmat faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagicha:

- psixologik ma'rifat va tashviqot;
- psixologik-pedagogik tashxis;
- psixologik profilaktika;
- psixologik korreksiya;
- psixologik maslahat;
- kasb-hunarga yo'naltirish.

Psixologik ma'rifat - psixologik bilimlarni egallash maqsadida pedagog va o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar)ning shuningdek, ota-onalar yoki qonuniy vakillaming psixologik madaniyatini oshirish. Psixologik ma'rifatning vazifalari quyidagilardan iborat:- o'quvchilarga eng oddiy psixologik bilimlarni berish va ularning bu bilimlarni egallahiga erishish, tengdoshlari va katta lar bilan shaxslararo munosabatlarga kirishish, o'zlarining shaxsiy sifatlari va xarakter xususiyatlari, qobiliyatlar, layoqatlariga baho bera olish bilan bog'liq bo'lgan bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;- o'quvchilarda o'quv jarayoniga, o'qituvchilar va tarbiyachilar bilan muloqotga ijobjiy munosabatni shakllantirish;- o'smirlar, yigit va qizlarning jinsiy tarbiyasi, ularning oila psixologiyasi va

**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va  
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**



oilaviy munosabatlar, shaxsiy gigiyena va kasalliklarning oldini olish sohasidagi bilimlarni egallashiga erishish;- har bir bolaga individual yondashuvni amalga oshirishda pedagoglar, tarbiyachilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarning psixologik kompetentligini oshirish;- individual suhbatlar, ochiq darslar, seminarlar va maslahatlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali psixologik bilimlarni targ'ib qilish.

Psixologik-pedagogik tashxis - o'quvchilaming qiziqishlari, layoqatlari, qobiliyatlar, qadriyatlar yo`nalganligi ijtimoiy ustanovkalari va munosabatlari, bilish va o'quv faoliyati motivatsiyalarini inobatga olgan holda ularning individual-psixologik va shaxs xususiyatlarini aniqlash va baholash. Psixologik-pedagogik tashxisning vazifalari;- 6-7 yoshdagi bolalarning boshlang`ich sinflarda o'qishga tayyorgarligini o'rganish maqsadida ularning psixologik rivojlanishi va qobiliyatlarini aniqlash;- ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablariga qabul qilishda o'quvchilarning bilish va boshqa maxsus qobiliyatlarini aniqlash hamda baholash;- turli psixologik tashxis metodikalari yordamida o'quvchilar bilan test-sinovlari o'tkazish va suhbatlashish, natijalarni maktabda ta'lim olish davri mobaynida "Psixologikpedagogik tashxis daftari" da qayd etib borish;- o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar)ning iqtidori va potensial qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi psixologikpedagogik sharoitlarni yaratish maqsadida ulardagи iqtidorni tashxis qilish orqali aniqlash;- umumta'lim muassasalari o'quvchilarini va bitiruvchilarining kasb-hunar, mutaxassislik va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'lim yo'nalishini (kasb-hunar kolleji va akademik litsey) tanlashida ularning qiziqishi, layoqati va bilish qobiliyatlarini aniqlash;- tarbiyasi og'ir bolalar va o'smirlar bilan korreksion ishlarni amalga oshirish, ularni tarbiyalash, maktab hamda ijtimoiy muhitga moslashishini ta'minlash maqsadida individual-psixologik va shaxs xususiyatlarini aniqlash;- tashxis natijalari bilan o'quvchilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillar, pedagoglarni tanishtirish, shaxsning ongli ravishda kasb- hunar tanlashini shakllantirish va rivojlantirishda ularga buning ahamiyatini tushuntirish;- shaxsiy muammolarning yechimini topish va ularga zarur psixologik yordam ko'rsatish maqsadida ota-



onalar yoki qonuniy vakillar, pedagoglar (ularning roziligi olingan holda) bilan tashxis ishlarini olib borish.

Psixologik profilaktika - bolalaming psixologik salomatligidagi buzilishlar, ularning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi salbiy og'ishlarni o'z vaqtida oldini olish. Psixologik profilaktikaning vazifalari:- Suhbatlashish va tashxis tekshiruvlari natijalari, shuningdek, ota-onalar yoki qonuniy vakillar va pedagoglardan olingan ma'lumotlar asosida bolalarning psixologik salomatligini aniqlash,- ijtimoiylashuv, ta'lim va tarbiya jarayonida shaxs shakllanishi hamda rivojlanishidagi og'ishlarning oldini olish bo'yicha choralar belgilash, bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti hamda munosabatlarida psixologik shikast yetkazuvchi omillarni bartaraf etishga yordam ko'rsatish;- asabiy-psixik zo'riqish va shaxs sifatlarining buzilishi alomatlari aniqlangan, shuningdek, addiktiv qaramlikda bo'lgan (alkogol, narkotiklar, toksik moddalarga ruju qo'yish, internet- qaramlik va boshqa shu kabi holatlardagi) o'smirlarga psixologik yordam ko'rsatish;- maktabgacha va umumta'lim muassasalari, mehribonlik uylari hamda oilada bolalar tarbiyasi va ta'limining psixogigiyenik shart-sharoitlariga rioya etilishini nazorat qilish, bu sharoitlar buzilgan holatlarda choralar ko'rish; - bolalar va o'smirlami o'z qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlarini va bilimlarini tatbiq etishni xohlagan hayotiy faoliyat sohalarini anglab yetishga tayyorlash;- ota-onalar yoki qonuniy vakillarga, pedagoglarga (ularning roziligi bilan) shaxslararo munosabatlarda, oilada yoki pedagogik jamoada nosog'lom psixologik iqlim muammolarini hal etishda psixologik yordam ko'rsatish, psixologik shikast yetka- zuvchi omillar ta'sirini bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish.

Psixologik korreksiya va rivojlantirish - shaxsning shakllanishi hamda rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish hamda og'ishlarni bartaraf etish, o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) muomalasi va xulq-atvoridagi buzilishlarni korreksiyalash, shaxsning psixik rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. Psixologik korreksiya va rivojlantirishning vazifalari:- O'quvchilar (tarbiyalanuvchilar)dagi psixik jarayonlar, ijtimoiy ustakovkalar, subyektiv



fikrlar va salbiy munosabatlar rivojlanishini korreksiyalash;- ta'lim va mustaqil o'quv faoliyati jarayonida o'quvchilarning bilish faolligi hamda qiziqishlarini rivojlantirish maqsadida ularning intellektual passivligini korreksiyalash;- tarbiyasi qiyin bolalar va o'smirlarning ijtimoiy ustanovkalari, munosabatlari, xulq-atvor motivlarini, ularning maktabga va ijtimoiy muhitga yetarli darajada moslasha olmaslik holatlarini korreksiyalash;- ta'limtarbiya jarayoni barcha subyektlari o'rtasidagi normal shaxslararo munosabatlarni korreksiyalash va rivojlantirish;- o'quvchilar, ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillariga, pedagoglarga psixologik korreksiya natijalarini, shaxsning normal rivojlanishi uchun bu natijalarning ahamiyatini tushuntirish;- pedagogik jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlarini, shaxslararo munosabatlarini va ziddiyatli hattiharakatini korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish, rahbarlarning boshqaruvsiz uslubini optimallashtirish.

Psixologik maslahat - o'quvchilar, tarbiyalanuvchilar, ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillariga, pedagoglarga shaxsiy muammolar va ziddiyatli munosabatlarni konstruktiv hal etilishida psixologik yordam ko'rsatish, shaxsning ichki psixologik imkoniyatlarini safarbar qilish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Psixologik maslahatning vazifalari:- Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlariga bolalarning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishining yosh xususiyatlari, rivojlanishdagi buzilishlar hamda kechikishlar, ularni korreksiyalash, shuningdek, bolalarni boshlang'ich sinfdagi o'qishga va maktabga moslashuvga psixologik tayyorlash masalalari bo'yicha maslahatlar berish;- bolalarning boshlang'ich sinflardan o'rta sinflarga o'tishi, shuningdek, maktabni bitirish va bo'lg'usi kasb-hunar hamda ta'lim muassasasi (akademik litsey, kasb-hunar kolleji)ni tanlash masalalarida o'quvchilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarga maslahatlar berish;- maktab-internatlar, mehribonlik uylari, shuningdek, yetim bolalar ta'lim olayotgan umumta'lim muassasalari xodimlariga ta'lim-tarbiya, bolalarning ijtimoiylashuvi va moslashuvini psixologik kuzatish masalalari bo'yicha maslahatlar berish;- o'smirlar va yoshlarga kattalar va tengdoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlar, oilaviy muammolar, xulq-



atvordagi og'ishlarni bartaraf etish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va rivojlantirish, shuningdek, hayotiy va kasbiy o‘zligini anglash masalalarida maslahatlar berish;- maktabgacha ta’lim, umumta’lim muassasalari, mehribonlik uylari rahbarlariga pedagogik jamoani boshqarishni optimallashtirish, qo‘l ostidagi xodimlar bilan shaxslararo munosabatlar, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni hal etish hamda sog‘lom psixologik muhitni ta’minalash masalalarida maslahatlar berish;- maslahat berish jarayonida o‘quvchilar va tarbiyalanuvchilarda mustaqil ta’lim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini korreksiyalashga ijobiy munosabatlarni shakllantirish hamda ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

Kasb-hunarga yo‘naltirish - o‘quvchilarning individual qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatları, jamiyat va mehnat bozorining muayyan kasb va mutaxassisliklarga bo`lgan, ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularni kasbiy o‘zligini anglashlari uchun yordam berishga qaratilgan psixologik-pedagogik hamda tibbiy chora-tadbirlar majmui. Kasb-hunarga yo‘naltirishning maqsadi - o‘quvchilar va maktab bitiruvchilarini muayyan kasbni hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejidagi ta’lim yo‘nalishlarini ongli va mustaqil tanlashga tayyorlash. Kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari:- Kasbiy ma’rifat turli kasblar, ixtisosliklar, mansab lavozimlari, tanlangan kasbni, ixtisoslikni egallash mumkin bo‘lgan ta’lim turlari hamda ta’lim muassasalari, shuningdek, kasbning insonga, uning jismoniy, psixologik va shaxsiy sifatlariga, salomatligiga qo‘yadigan talablari haqida ma’lumotlar berish;- kasbiy maslahat - o‘quvchilarga ularning individual xususiyatlari va mehnat bozori talablariga, ta’lim olish hamda kelgusida ishga joylashish imkoniyatlariga muvofiq kasb va ta’lim muassasasini tanlashga yordam berish;- kasbiy tashxis - o‘quvchilarning bilish (o‘quv predmetlariga, fanga) va kasbiy (kasblarga, mutaxassisliklarga) qiziqishlarini, kasb tanlash motivlari va kasbiy rejalarini aniqlash hamda baholash;- kasbiy tarbiya - bolalar va o‘smirlarda mehnat malaka va ko‘nikmalarini, kasblarga qiziqish, mehnatsevarlik, ishchanlik hamda mas’uliyatni shakllantirish va rivojlanish. O‘quvchilarni kasb-hunarga



yo'naltirish bo'yicha tadbirlar O'zbekiston Respublikasi MMTV , Respublika tashxis markazi buyruqlari, me'yoriy hujjatlari va metodik tavsi yalari asosida barcha darajadagi tashxis markazlari tomonidan tashkil etiladi va bevosita ta'lim muassasalarining psixologlari tomonidan amalga oshiriladi.

## **XULOSA**

Psixolog o'quvchilar bilan bevosita aloqada ularda vujudga kelgan muammolarni hal qiladilar. Bu to'g'ridan to'g'ri maslahat berish deb ataladi. Ba'zan o'quvchilarga va otaonalarga o'qituvchilarning u yoki bu muammolari bo'yicha 10 maslahat beradi, bu bavosita maslahat berishdir, bunda ma'lum qoidalariga amal qilishga to'g'ri keladi. Maslahat berish markazida har doim psixolog va maslahat berilayotgan shaxsning o'zaro ta'sir jarayoni, ular orasida ishonchli o'zaro munosabatni o'rnatish yotadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova PSIXOLOGIK XIZMAT.
- PSIXOKORREKSIYA
2. Sh.R.Barotov Ta`limda psixologik xizmat. – Buxoro: BuxDU-2007
3. N.Mirashirova Maktabgacha tarbiya muassasalarida psixologik xizmat. –
4. Toshkent: TDPU,2003
5. Z.T.Nishanova Psixologik xizmat. – Toshkent: Yangiyo`l poligraf servis,2007
6. I.V.Dubrovina Prakticheskaya psixologiya v Obrazovanii. Moskva.
7. Pedagogika,1998
8. 6.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'quvchilarni psixologikpedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2019-yil
9. 12-iyuldagи 577-sonli qarori
10. E.G'oziyev, Sh.Azizova "Tashkiliy psixologiya". Toshkent 1999



**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va  
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**

11. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat Darslik,"KAMOLOT" nashriyoti, 2023 yil. 332 bet.
12. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 5-son (2021-yil, oktabr). Buxoro, 2021 y. B. 145-150.

